# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yil yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 257,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 107,2 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (92,8 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 7,8 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 10,2 %ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 18,4 %ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -4,3 %ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I -oy, %da )*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 12,5 | 15,2 | 2,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 167,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,8 %ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *%da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2021- yilning yanvar oyida - 0,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 17,8 % (10,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 10,2 % (13,0 %) va quyi texnologiyalisi – 64,6 % (68,4 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,1 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 43,1 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 93,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,7 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,5 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 69,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,1 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 80,7 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati, *%da*

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,8 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 2,9 martaga o‘sgan), 14,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (17,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 1,6 | 1,8 | 0,2 |
| **Aroq –** ming litr 100 % spirt | 22,0 | 0,0 | -22,0 |
| **Konyak spirti –** ming litr 100 % spirt | 0,0 | 96,2 | -96,2 |
| **Vino,** ming litr | 155,8 | 27,2 | -128,6 |
| **Un,** ming tonna | 12,6 | 14,8 | 2,2 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 1,6 | 4,8 | 3,2 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar oyida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,0 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,6 martaga pasayishi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- oy, %da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 43,5 | 43,6 | 0,1 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 90,8 | 137,2 | 46,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
*( yanvar, % da )*

2020- yil *%da*




2021- yil *%da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar | 2021- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 4,7 | 8,2 | 3,5 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 1,1 | 3,1 | 2,0 |
| **Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so’m | 1,5 | 1,7 | 0,2 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** tonna | 6,6 | 1,1 | 8,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 74,5 % ga, oqava suvlarni shlami 2,8 martaga hamda qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xafsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 13,3 %ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 899,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 8,5 %ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 71,5 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2020- yil yanvar oyida 1,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,2 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 %ni, Samarqand tumani 8,5 %ni, Toyloq tumani tumani 9,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishida viloyatning o‘sish sur’ati (108,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Ishtixon (328,9 %), Toyloq (188,9 %), Samarqand (140,3 %), Bulung‘ur (115,3 %), Narpay (114,2 %) hamda Urgut (112,3 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 352,8 | 39,2 | 94,4 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 16,2 | 1,8 | 78,9 |
| Oqdaryo | 18,6 | 2,1 | 69,3 |
| Bulung‘ur | 25,5 | 2,8 | 115,3 |
| Jomboy | 54,1 | 6,0 | 100,9 |
| Ishtixon | 19,2 | 2,1 | 328,9 |
| Kattaqo‘rg‘on | 16,6 | 1,8 | 103,3 |
| Qo‘shrabot | 3,7 | 0,4 | 113,4 |
| Narpay | 22,0 | 2,4 | 114,2 |
| Payariq | 13,0 | 1,4 | 141,4 |
| Pastdarg‘om | 31,9 | 3,6 | 106,1 |
| Paxtachi | 31,6 | 3,5 | 106,5 |
| Samarqand | 76,6 | 8,5 | 140,3 |
| Nurobod | 6,4 | 0,7 | 120,7 |
| Urgut | 130,2 | 14,5 | 112,3 |
| Toyloq | 81,2 | 9,0 | 188,9 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,2 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 %ni, Toyloq tumani 9,0 %ni hamda Samarqand tumani 8,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Ishtixon (370,7 %), Toyloq (175,8 %), Bulung‘ur (134,3 %) hamda Samarqand (130,7 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh. | 227.2 | 39.2 | 86.2 |
| Narpay | 14.2 | 2.4 | 106.5 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 10,4 | 2,8 | 122,7 |
| Payariq | 8,4 | 1,4 | 95,5 |
| Oqdaryo | 12,0 | 2,1 | 82,9 |
| Pastdarg‘om | 20,6 | 3,6 | 99,9 |
| Bulung‘ur | 16,4 | 2,8 | 134,3 |
| Paxtachi | 20,3 | 3,5 | 98,5 |
| Jomboy | 34,8 | 6,0 | 95,5 |
| Samarqand | 49,3 | 8,5 | 130,7 |
| Ishtixon | 12,3 | 2,1 | 370,7 |
| Nurobod | 4,1 | 0,7 | 97,4 |
| Kattaqo‘rg‘on | 10,7 | 1,8 | 92,0 |
| Urgut | 83,8 | 14,5 | 101,4 |
| Qo’shrabot | 2,4 | 0,4 | 97,1 |
| Toyloq | 52,3 | 9,0 | 175,8 |

Hududlar kesimida oziqovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 39,2 %ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 %ni, Toyloq tumani esa 9,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Ishtixon tumani (370,7 %), Toyloq tumani (175,8 %) hamda Bulung‘ur tumanida (134,3 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar oyida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Samarqand sh | 121,8 | 38,7 | 117,4 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 5,8 | 1,8 | 102,2 |
| Oqdaryo | 6,6 | 2,1 | 53,4 |
| Bulung‘ur | 8,8 | 2,8 | 93,1 |
| Jomboy | 18,8 | 6,0 | 113,2 |
| Ishtixon | 6,8 | 2,2 | 273,3 |
| Kattaqo‘rg‘on | 5,9 | 1,9 | 133,0 |
| Qo‘shrabot | 1,3 | 0,4 | 162,9 |
| Narpay | 7,8 | 2,5 | 131,2 |
| Payariq | 4,6 | 1,5 | 135,2 |
| Pastdarg‘om | 11,4 | 3,6 | 119,6 |
| Paxtachi | 11,2 | 3,6 | 124,9 |
| Samarqand | 26,2 | 8,3 | 172,4 |
| Nurobod | 2,3 | 0,7 | 212,5 |
| Urgut | 46,4 | 14,7 | 139,4 |
| Toyloq | 28,5 | 9,1 | 226,3 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar oyida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 510,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 40,6 %ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Viloyat | 1257,3 | 100,0 | 107,2 |
| Samarqand sh. | 609,6 | 48,5 | 102,2 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 22,9 | 1,8 | 85,9 |
| Oqdaryo | 23,2 | 1,8 | 78,4 |
| Bulung‘ur | 27,3 | 2,3 | 108,4 |
| Jomboy | 70,9 | 5,6 | 52,5 |
| Ishtixon | 36,6 | 2,9 | 162,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 20,4 | 1,6 | 108,1 |
| Qo‘shrabot | 3,8 | 0,3 | 108,2 |
| Narpay | 35,6 | 2,8 | 75,8 |
| Payariq | 14,1 | 1,1 | 114,0 |
| Pastdarg‘om | 37,7 | 3,0 | 101,8 |
| Paxtachi | 37,7 | 3,1 | 119,6 |
| Samarqand | 92,2 | 7,3 | 111,3 |
| Nurobod | 8,2 | 0,7 | 118,5 |
| Urgut | 135,1 | 10,7 | 109,4 |
| Toyloq | 82,0 | 6,5 | 119,9 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Ishtixon (2020- yil yanvar oyiga nisbatan 162,2 %), Paxtachi (119,6 %), Nurobod (118,5 %), Payariq (114,0 %) hamda Samarqand (111,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *%da* | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, %da |
|---|---|




**Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 48,5 %i) hamda Urgut (10,7 %), Samarqand (7,3 %), Toyloq (6,5 %), va Jomboy (5,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Qo‘shrabot (0,3 %) hamda Nurobod (0,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (1 110,3 ming so‘m), Jomboy tumani (407,3 ming so‘m), Toyloq tumani (404,2 ming so‘m) va Samarqand tumani (363,0 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (321,4 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Qo‘shrabot (28,3 ming so‘m), Nurobod (54,3 ming so‘m), Payariq (55,8 ming so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (74,2 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

# Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar oyida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Viloyat | 321,4 | 229,9 |
| Samarqand sh. | 1110,3 | 642,5 |
| Narpay | 166,4 | 102,9 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 253,7 | 179,8 |
| Payariq | 55,8 | 51,6 |
| Oqdaryo | 145,0 | 116,0 |
| Pastdarg‘om | 105,8 | 89,6 |
| Bulung‘ur | 145,1 | 135,9 |
| Paxtachi | 260,3 | 217,8 |
| Jomboy | 407,3 | 311,0 |
| Samarqand | 363,0 | 301,4 |
| Ishtixon | 143,4 | 74,9 |
| Nurobod | 54,3 | 42,1 |
| Kattaqo‘rg‘on | 74,2 | 60,5 |
| Urgut | 263,3 | 253,7 |
| Qo‘shrabot | 28,3 | 27,9 |
| Toyloq | 404,2 | 400,5 |

## **Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**
*2021- yilning yanvar oyida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 537,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,8 %ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oqdaryo, Qo‘shrabot va Nurobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Payariq (96,5 %), Paxtachi (89,2 %) va Pastdarg‘om (79,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichik ulush Ishtixon (13,6 %), Narpay (17,0 %), Samarqand shahar (23,5 %) va Toyloq (23,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
*(2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 7 087 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 620 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,8 %ni) Samarqand shahriga, 1039 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 660 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga, 621 tasi (8,8 %) Pastdarg’om tumaniga, 434 tasi (6,1 %) Ishtixon tumaniga, 347 tasi (4,9 %) Jomboy tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

| **Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*** | **Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda*** |
|---|---|




2021- yilning yanvar oyida viloyatda 143 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 25 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,5 %) Samarqand shahrida, 23 tasi (16,1 %) Urgut tumanida, 16 tasi (11,2 %) Kattaqo‘rg‘on tumanida, 13 tasi (9,1 %) Samarqand tumanida, 11 tasi (7,7 %) Pastdargo‘m tumanida hamda 10 tasi (7,0 %) Ishtixon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari
*2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Samarqand shahar (1 620 ta), Urgut (1039 ta), Samarqand (660 ta), Pastdargo‘m (621 ta), Ishtixon (434 ta) va Jomboy (347 ta) tumanlari qayd etildi.







2021-yilning 1- fevral holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Qo‘shrabot (124 ta), Nurobod (153 ta), Narpay (191 ta), Paxtachi (191 ta), Bulung‘ur (238 ta) tumanlari hamda Kattaqo‘rg‘on (243 ta) shahrida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi**
**Bo‘limi**
*Tel.: (66) 235-06-80*